



## RERAYTER FAOLIYATIDA MATN BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Nargiza Mirzayeva

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dots.v.b., f.fff.d. (PhD)

**Annotation.** Bugungi kunda internet ommaviy axborot vositalari orqali shiddat bilan tarqalayotgan yangi axborot manbalarining paydo bo'lishi, jurnalistika yo'nalishida turli xil yangiliklar bilan ishlash imkoniyatlarini yaratmoqda. Jumladan, rerayting – matnga yangicha ishlov berish texnikasining paydo bo'lishi tarqalayotgan yangiliklarga, juda qisqa vaqt ichida qayta ishlov berib, auditoriyaga uzatilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada rerayting usuli ommaviy axborot vositalarining internet platformalarida zamon talabiga mos yangi kontent yaratishning zamonaviy yo'nalishlari, tajribali qayta yozuvchi jurnalist qanday bo'lishi kerakligi, qayta yozilgan matnning o'ziga xosligi qanday xususiyatlarga egaligi bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** rerayting, internet, matn, samarali matn, matnni qayta yozish usullari.

**Аннотация.** Сегодня появление новых источников информации, которые стремительно распространяются через интернет-СМИ, создает возможности для работы в направлении журналистики с использованием разнообразных инноваций. В частности, появление перрайтинга – новой техники обработки текста - становится все более важным в распространении новостей, их обработке за очень короткое время и передаче аудитории. В данной статье даны рекомендации по современным направлениям создания нового контента в соответствии со спросом СМИ на интернет-платформах методом перенаправления, каким должен быть опытный журналист-перайтер, какими особенностями обладает уникальность переписанного текста.

**Ключевые слова:** перрайтинг, Интернет, текст, эффективный текст, методы переписывания текста.

**Abstract.** Today, the emergence of new sources of information that are rapidly spreading through online media creates opportunities for working with various news in the field of journalism. In particular, the emergence of rewriting – a new text processing technique - is becoming increasingly important in the dissemination of news, their processing in a very short time and transmission to the audience. This article provides recommendations on modern directions of creating new content in accordance with the demand of the media on Internet platforms by the method of redirection, what an experienced journalist-rewriter should be, what features the uniqueness of the rewritten text has.

**Keywords:** rewriting, Internet, text, effective text, text rewriting methods.

Jurnalistikada matnga yangicha samarali ishlov berish – asl qoralamadagi ma'no va faktlarni saqlab qolgan holda, qayta yozuvchi o'z so'zlari bilan qayta yozish kerakligi tushuniladi. Qayta ishlov beriladigan matn materialini kirish konstruksiyalari,





sifatlar, jumla tuzilishi va matnning boshqa ma'nosiz elementlarini sinonimlar bilan soddalashtirish orqali o'zgartiriladi. Matnga yangicha qayta ishlov berishda, ya'ni bitta mavzuni o'zini qayta yoritish uchun bir necha manbalardan foydalangan ma'qul. Masalan, internet ma'lumotlariga shu bilan birga rus, o'zbek va chet el badiiy adabiyotlariga va h.k. Bunda, qayta ishlov berilishi kerak bo'lgan matn materialini qayta yozishdan oldin, shu matnni qanchalik dolzarbli, nima sababdan zarurligi, qanchalik ahamiyatga ekanligini tushunish uchun uni bir necha marta, baland ovozda qayta-qayta o'qib chiqish kerak. Chunki bunday holat, matnda uchraydigan murakkab jarayonlarni tez tushunishga, umumiyligi ma'noni va xulosani saqlab qolishga va matnni yana ham jilolashga ijobiy ta'sir qiladi. Albatta, qayta ishlov berilgan matn materialida asl nusxaning ma'nosini, faktlari, tafsilotlari saqlanib qolinishi shart. Yangicha qayta ishlov berilganda asl qoralamada yo'q jumlalar, mos kelmaydigan so'zlar, ortiqcha sharhlar, faktlar, shu bilan birga, asl ma'noni mutloq o'zgartiradigan gaplarni qo'shish kerak emas. Samarali qayta yozilgan matn, asl mualliflik matni bilan mustakamlanishi kerak. O'z ishini mutaxassis bo'lgan qayta yozuvchilarning fikrlariga ko'ra, qayta ishlanishi kerak bo'lgan matnning birlinchi xatboshini mustaqil o'zgartirish mumkin. Chunki asl matnning boshlanishi ma'no va xulosaga deyarli o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Matnni hikoya qilish bilan, keltirilgan faktlar, ya'ni jarayonni o'zgartirish mumkin. Agar asl qoralamada, muallif xususiyidan umumiyliga o'tgan bo'lsa, matnga yangicha ishlov berishda esa, umumiylidan xususiyiga o'tish kerak bo'ladi. Matnni asl ma'nosini saqlash uchun xuddi shu mavzudagi qayta ko'rib chiqilgan bo'laklardan foydalangan ma'qul. Matn qismlari va jumlalarining joylarini o'zgartirish orqali uning tuzilishini o'zgartirishga erishiladi. Agar asl matn ajralmas bo'lsa, uni kichik sarlavhalar ostida bir qancha bo'limlarga bo'lish mumkin. Yangi matn aslidan-da jilolanishi uchun murakkab gaplarni sodda gaplar bilan, yoki aksincha, sodda gaplarni murakkab gaplar bilan almashtirish mumkin. Bunda, ergash gaplar gapning bir qismidan ikkinchi qismiga ko'chirilishi yoki umuman olib tashlasa ham bo'ladi. Matnni mustaqil ravishda, shaxsiy usuldan foydalanib moslashtirsa ham bo'ladi. Bunda matn jumlalaridagi so'zlarni almashtiribgina qolmay, balki so'zlarni sinonimlar bilan almashtirish kerak. Buning uchun avtomatlashtirilgan qayta yozish dasturlaridan foydalanmagan ma'qul. Chunki ular qayta ishlov berilgan ishning samaradorligini kamaytiradi. Shu o'rinda savodsiz matnlarni ko'rinishini qo'yidagicha ko'rsatish mumkin:





-Qayta yozuv ishini qulayroq ko‘rinishini ta’minlash uchun, matnni jadvalga joylashtirish kerak. Masalan, birinchi ustunga asl matn materiali, ikkinchisiga esa qayta ishlov berilgan yangi matn yoziladi.

-Har bir jumla birin-ketin qayta yoziladi, bu matnning o‘ziga xosligi ta’minlaydi. Ketma-ket qayta yozishdan foydalanish, usulning o‘ziga xos xususiyatlarini bildiradi [1, 74]. Jurnalistikada yangicha qayta yozishning afzalliklari shundan iboratki, matn yozishda yaxshiroq mutaxassis bo‘lish, umumiyl bilim saviyasini oshirish, qat’iyat ishonchlilikni mustahkamlash, mijozlar yoki buyurtmachilar bilan muloqotni mustahkamlash uchun tajriba orttirish, kopirayter bozorining mexanizmini tushunish bilan birga, daromad topish qobiliyatini oshiradi. Yosh, endi ish boshlagan jurnalist rerayter faoliyatining boshida tajribasizligi tufayli ishini past narxda belgilanish hollari, uning ishiga mijozlarning talabchan emasligini ta’minlaydi. Keyinchalik shu faoliyat bo‘yicha malaka va tajribani ortirish tufayli mijozlar sonining oshishi bilan, mazkur xizmatlar narxini bir oz ko‘tarish maqsadga muvofiq. Tajribali jurnalist bir xillikdan qochib, vaqtı-vaqtı bilan eng yaxshi variantni topib, turli xil kontent almashinuvlari bilan ish yuritishi kerak. Umuman olganda, qayta yozuvchi jurnalist o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadiga erishishi uchun o‘z ustida ko‘proq ishlashi, shug‘ullanishi va tajriba orttirishi kerak. Chunki birjada malakali rerayterlarga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda.

Mualliflik huquqi va qayta yozish bo‘yicha internetda keltirilgan manbalarga asoslanib aytish mumkin, qayta ishlov berilgan axborotga bo‘lgan talab bir necha marta ko‘p bo‘lib, bu ko‘rsatkich 90 foizdan ortiq ekan. Lekin internet ma’lumotlarida ayrim xollarda, saytlar bir-biridan qiziqarli yangiliklar va ma’lumotlarni o‘g‘irlashi ham keltirib o‘tilgan [2,44]. Buning uchun qidiruv tizimlari ushbu saytlarga sanksiyalar qo‘lliganligi ham aytib o‘tilgan. Jurnalistika sohasida faoliyat olib boruvchilarga nima sababdan mualliflik huquqi kerak? Haqiqat shundaki, matnda keltirilgan fikr va g‘oyaning o‘ziga xosligidir. Chunki qidirish mexanizmlarini aldash qulay, lekin odamlarni esa aldab bo‘lmaydi. Masalan, sizning saytingizdan foydalanuvchilar, berilgan yangilikni haqqoniyligiga ishonsa, unga ijobiy baho berishadi. Bu bilan o‘quvchilar o‘ziga yoqqan yangi g‘oya va fikrlarni saqlab qolgan xolda, keyinchalik shu saytga yana qayta kirishni xohlagan holda qoniqish bilan tark etadilar. Internet manbalaridagi eng oxirgi ma’lumotlarda, mualliflik huquqi va qayta yozish o‘rtasidagi chegara tobora yo‘qolib borayotganligi berilgan.





Jurnalistikada qayta yozish tarkibni tez va oson qilishning eng oddiy usuli bu tajribali muallifga murojaat qilishdir. Oliy ma'lumotli jurnalist tajribali mutaxassisni his qila oladi. Shu tajribasi asosida bitta manbadan kelib chiqqan holda, bir qancha yangi maqola yaratishi mumkin. Shu bilan birga, muallifning o'zi ham ajoyib tasavvurga ega bo'lishi kerak.

"Mualliflik huquqi" va "qayta yozish" usullarining yakuniy maqsadi bitta, ya'ni buyurtmachi yoki mijoz talabini qondirish uchun jozibali matn yaratishdir [3,89].

Jurnalistik nuqtai nazaridan matnni samarali qayta yozish murakkab jarayon bo'lib, bu usulning o'ziga xos asosiy vazifalari, talablari, usullari, vositalari va texnikasi mavjud [4].

**Vazifalari:** - matndagi kalit so'zlarning sodda va tushunarli bo'lishi bilan birga, soni me'yordan oshmasligi kerak, matnni qayta yozish usullari oddiy, chuqur va texnik bo'lishi kerak;

- matnning o'ziga xosligini va semantik tarkibini saqlab qolish;
- matnni sifatli qayta yozish uchun bitta maqola manbasi kifoya qiladi va h.k.

**Talablari:** - har tomonlama savodli bo'lish kerak. Buning uchun zamon talabiga mos yangilik, axborot va maqolani tanlash kerak. Tanlangan matn materialini xatosiz o'qib xatosiz qayta yozish kerak. Ayrim yozuvchilar, xatolarni tekshirish va tuzatish uchun maxsus xizmat dasturlaridan (imlo) foydalanadi. Bunda hech bir xizmat dasturlari xatolarni to'liq aniqlay olmasligi esdan chiqarmaslik kerak;

- o'z ishiga mas'uliyatli bo'lish kerak: Maqsadga erishish uchun, ya'ni qayta ishlov berilgan ish, aslidan kuchliroq bo'lishi kerak. Buning uchun maxsus tarmoqlar orqali uzatilayotgan eng oxirgi yangi ma'lumotlarga tayanib faoliyat olib borish kerak. Qayta ishlov berilgan matn aslidan ajoyib bo'lishi uchun, tabiiy ishni asos qilib olish kerak;

- e'tiborli bo'lish kerak: Bunda ishning sifati va samaradorligi muhim rol o'ynaydi. Bu jihatlar ikkinchi darajali ishni ajratishga yordam yaratadi, shu bilan birga asl qoralamdan kuchliroq matnlar yozish imkonini beradi;

- talablarga ahamiyat berish kerak: Albatta har bir sohada bo'lgani kabi, qayta yozuvchining ishiga ham o'ziga yarasha talablar qo'yiladi. Chunki bu jarayon biror ma'lum loyihani o'z ichiga olgan, katta o'zgarishlarni nazarda tutadigan va tartibga soladigan usul hisoblanadi.





Yuqoridagi tartib va qoidalar asosida qayta ishlov berilgan matn har doim sifatli bo‘lishi bilan birga o‘z samarasini beradi. Bunday jarayon albatta qayta yozuvchi bilan auditoriya orasidagi munosabatni tiklash va mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

**Samarali qayta yozish vositalari.** Zamon talabiga mos holda buyurtmani yoki maqolani sifatli mazmunli qilib tayyorlab uzatishda, tajribali yozuvchilar qayta yozishda quyidagi vositalardan foydalanadilar [5,192]. Asl manbadagi so‘zlarni sinonimlar bilan almashtirish mushkul bo‘lsa, Internet yordamchi xazmat dasturlaridan foydalangan ma’qul. Bunday lug‘atlarni va havolalarni qidiruv tizimida orqali topish qulay.

1. Sinonimlar - ma’no jihatidan yaqin, ammo yozilishi jihatidan farq qiluvchi so‘zlardir. Masalan, toza - ozoda - orasta, jozibali - chiroysi - go‘zal, kuchli - chidamli - baquvvat, navo – nola - xonish va h.k. Sinonimator xizmatiga so‘z kiritish orqali o‘nlab sinonimlarni misol keltirsa bo‘ladi.

2. Nutqni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilvosita qayta yozishda yagonalikdan qochish kerak. Chunki buning natijasida matnning jozibasi sezilarli darajada kamayadi. Shunday holatlarga duch kelmaslik uchun matn materialida keltirilgan iboralarning asl ma’nosini saqlab qolish kerak.

3. Otni fe’l bilan almashtirish yoki aksincha. Masalan, tik turish-to‘xtash; haydash – quvish; ish-yumush; silla-tinka va h.k.

4. Taklifning tuzilishini o‘zgartirish. Buning uchun uzun jumlalarni qisqartib, ayrimlarini birlashtirish kerak. Yangi taklifni qabul qilish osonligini unutish kerak emas, albatta. Bunday ish uslubi ko‘plab mualliflarning ijod mahsulidir.

5. Raqamlarni so‘z bilan yozish: bunda matn materialidagi raqamlar, sonlar so‘zlar bilan almashtiriladi.

6. Fe’lni kesim yoki ergash gap aylanmasi bilan almashtirish usuli bilan shug‘ullanmagan ma’qul. Chunki bunday tuzilmalarning ko‘pligi tufayli maqolaning murakkabligi ortadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bir qarashda, hech qanday murakkab narsa yo‘q. Ammo amalda matnni qayta yozish uchun mashaqqatli bo‘lib yaxshigina mahoratni, bilimni va tajribani talab etadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva N.A. Rewriting - matnlarni samarali qayta ishslash va yaratish usuli





sifatida. "Interpretation and researches" xalqaro ilmiy jurnal. ISSN:2181-4163 Impact factor 8.2. 2023.

2. Еремченко В.И. Ререйтинг: механизм преступной деятельности и проблемные вопросы расследования. Рос. 2011.
3. Науменко Д.А., Гращенко Л.А., Романишин Г.В. и др. России информационные основы автоматизации ререйтинга. Рос. 2018.
4. Бернадский С. Продающие тексты. // Как превратить читателя в покупателя. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2012.
5. <https://key.context.reverso.net> Key. Retrieved // "Clannad's visual novel official website" (in Japanese). November 30, 2007.
6. Мирзаева, Н. (2023). REWRITING-МАТЛARНИ САМАРАЛИ ҚАЙТА ИШЛАШ ВА ЯРАТИШ УСУЛИ СИФАТИДА. *Interpretation and researches*, 1(15).

